

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

G`AFUROVA N.T.

«Kompozisiya asoslari» fanidan

MA`RUZALAR MATNI

5140900 – Kasb ta`limi “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi”
yo`nalishidagi bakalavrlar uchun

5540600 – “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi” yo`nalishidagi
bakalavrlar uchun

Buxoro-2010

Taqrizchilar:

Buxoro shahar YES va P KHK
direktori muovini Sotvoldiyeva M.

«YESMTJ» kafedrası
dotsenti Pulatova S.U.

Tuzuvchi:

«YESMTJ» kafedrası
dosenti G`afurova N.T.

Ushbu ma`ruzalar matni «Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari» kafedrası yig`ilishida ko`rib chiqildi va ma`qullandi.

Bayonnoma № ____ « ____ » _____ 2010 y.

Ma`ruzalar matni institut o`quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanib, chop etishga ruxsat etildi.

Bayonnoma № ____ « ____ » _____ 2010 y.

Mazkur ma`ruzalar matni 5140900 – «Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi» (Kasb ta`limi) Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun mo`ljallangan.

Dasturda Ovro`po va Osiyo xalqlari kostyumining tavsifi berilgan. Kostyumning qadimiy, ilk va kech o`rta asrlar hamda zamonaviy turlari haqida ma`lumotlar keltirilgan. Kompozisiyaning kategoriyalari va xususiyatlari, kostyumda shakl yaratish, ritmik tuzilishda naqshlar yaratish kabi masalalarni o`rgatadi.

Данная конспект лекций предназначен для студентов высших учебных заведений по направлению 5140900 – «Технология изделий легкой промышленности» (профессиональное образование).

В программе приведены сведения о костюме народов Европы и Азии. Приведены сведения о старинном, первоначальном и позднем среднем веке, а также типы модернизации костюма. В методической рекомендации даны сведения о категориях и свойствах композиции, о формообразовании в костюме и о создании ритмического узора.

The given educational program is intended for the students of higher educational institutions on a direction 5140900 - " Technology of products of a light industry " (vocational training).

In the program the items of information on a costume of the peoples of Europe and Asia are given. The items of information on the ancient, initial and late Middle Ages, and also types of modernization of a costume are given. In the methodical recommendation the items of information on categories and properties of a composition, about education of the form in a costume and about creation of a rhythmic pattern are given.

KIRISH

«Kompozisiya asoslari» ma`ruzalar matni bakalavrlarga mo`ljallangan. Ushbu kurs bo`lajak mutaxassislarni atrof-muhit xarakteri real uslubda tasvirlash uchun nazariy bilim, amaliy ko`nikma va tasvirlash bilan ta`minlaydi.

Davlat ahamiyatiga maishiy masalalarni echish – yuqori sifatli kostyumni (kiyim, poyabzal, aksessuarlar) loyihalash va ishlab chiqarish – sanoat murakkab masalalarni echa olish va shu bilan birgalikda estetik savodxonligini engil sanoat texnolog- konstruktor muhandislarni tayyorlash bilim uzviy bog`liq. Ular bevosita kostyum yaratishda ishtirok etib yoki kostyum namunalari sifatini tekshirayotib, namuna sifatini ob`ektiv baholab, uning estetik yutug`i va kompozitsion etukligini aniqlay olishi zarur.

Rassomning fikrini mahsulot konstruktsiyasi va texnologiyasi orqali etkazish muhandis-konstruktor yoki muhandis-texnologning savodxonligiga, sezuvchanligiga bog`liq bo`lib, u mahsulot sifati bilan chambarchas bog`liq.

MA`RUZA №1

MAVZU: TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASHDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR. USLUB VA MODA

«Kostyum», «kiyim», va «moda» tushunchasi bir-biriga o`xshash ma`noda keladi. Ammo bular o`xshash bo`lsa ham, ular bir-biridan farq qiladi.

Qadimgi odamlar kiyimni o`zlarini tabiatdan, tabiat ofatlaridan saqlash uchun ishlatganlar. Ular ko`pincha tevarak-atroflarida bor narsalardan kiyim qilar edilar. Odamlarning birinchi kiyimi hayvonlarning po`stidan bo`lib, o`z tanalarini o`rganlar.

«Kiyim» frantsuz tilidan olingan «vetement», odamni tanasini o`rab turadigan narsa bu kiyim hisoblanadi. Masalan: toshbaqani o`rab turadigan narsa bu uning ustidagi toshi, hayvonlarni esa yungi hisoblanadi.

Birinchi bo`lib kiyim belgilarini paleolit odamlari kashf etganlar. Ular hayvonlarning po`stlaridan, baliqlarning po`stidan taxlab, elkalariga tashlab yurganlar, yana o`tlarni birlashtirib yubka taxlab kiyganlar. So`ngra har xil matolar paydo bo`la boshlagandan so`ng, odamlar shu matoni o`rab yurganlar. Kiyim xarakteri bo`yicha: bichish va kiyib yurishga bo`linadi, yana bir kiyimning qadimiy elementlaridan biri bu belbog`, kerakli predmetchalar hisoblanadi. Oxirida bunga qo`shimcha cho`ntak tikish fikri tug`ildi. Belbog`ga yana barglarni, po`stlarni, matoni ulaganlar. Qadimgi Gretsiya va Rimda odamlar matoni belbog` bilan o`tkazib qo`yganlar.

Qadimgi Egiptda matoni bosh, oyoq, qo`l uchun alohida o`yiqlar qilganlar. Ular ko`pincha engil matodan kiyim tikkanlar.

«Kostyum» so`zi ham frantsuz tilidan olingan. Kostyum tushunchasi kiyim tushunchasiga o`xshash. Kostyum va kiyim odamning tanasini yopadi, ammo bir tomondan farqi ham bor. Kostyum tushunchasiga kiyim, poyabzal, pricheska, bosh kiyimi, qo`lqop, taqinchoqlar va grim kiradi.

Ansambl – bu shunday kostyumki, bir yo`nalishga qaratilgan. Bu kostyum, ya`ni ansambl – bu inson obraziga ajratilgan kostyum. Ansambl murakkab strukturadan tuzilgan bo`lib, bir nechta qismlardan iborat, uning ichiga oyoq kiyimi, bosh kiyimi va taqinchoqlar kiradi. Bularni bir vaqtning o`zida hamma qismlarini taqib kiyishi kerak bo`ladi.

Maket – bu bir predmetning hajmini tasviri. Uning formasini, proportsiyasi va funktsiyasi tasvirlovchi predmet.

Model – ko`rinishidan yangi, formasi va matosidan ko`rinish.

Kiyimning sinflanishi. Zamonaviy kiyimlar turli xil bo`ladi. Uni yoniga qarab va matoning ko`rinishi, faslga qarab bo`lish mumkin. Kiyim yoshga qarab yana 2 ga: kattalar uchun (erkaklar va ayollar uchun) va bolalar uchun (o`g`il bolalar va qiz bolalar) bo`linadi. Kostyum sifatida ishlatishda kiyim yana ichki kiyim, ko`ylak va ustki kiyimga bo`linadi. Ichki kiyimni tanaga kiyishadi. Ko`ylak – kiyim ma`nosida kelib, ichki kiyimning ustidan kiyishadi, kostyum bilan (yubka bilan, kofta, sarafan kofta bilan).

Ustki kiyimga har xil turdagi palto, plax, kurtka kiradi. Kundalik kiyimga ishga kiyadigan kostyumlar, darsga borishga, bayramlarga kiyadigan, dam olish uchun kiyiladigan kostyum va uydagi ishlar uchun kiyiladigan kostyumlar kiradi.

Uyda kiyiladigan kiyimlar ham bo`lakchalarga bo`linadi, ya`ni dam olish uchun kiyim, ishlash uchun. Bu kiyimlar qulay harakatlanish uchun tikilgan.

1956 yilda bir guruh yosh ingliz modelerlar guruhi yaratildi, ular yoshlarga nima kerakligini bilar edilar. 1974 yilda Nyu-Yorkda kiyimlar ko`rgazmasi bo`lib o`tgandi. Ularning shoiri "Delayte luchshe, chem amerikantsu", yoki "Nyu-York-74". Bu ko`rgazma (oblitie gryazyu) kostyumlar, shimlar, shortiklar, yubkalar, bluzkalar ko`rsatilgan. Ali Levis eng yaxshi, sifatli djinsi matosini ishlatish bo`yicha konkurs e`lon qiladi, Amerikaning hamma shtatlari bo`yicha. SHundan so`ng u muzey ko`rgazmasi ochadi va magazinga aylanib, sklad, katalogga aylantiriladi.

Moda va iqtisod bir-biriga bog`liq ma`nodosh so`zlar. Moda chiqarish korxonalariga katta daromad keltirishi kerak. K. Dior, G. SHanel, A. Kurrej, P. Karden – nafaqat bular taniqli frantsuz rassom-modelerlari, balki ular biznesmen ham bo`lganlar. Har qaysi shaharning o`ziga xos rasm-rusumlariga bog`liq moda yo`nalishi bor. Kostyumning yaratilishi tarixida o`zining belgilariga ega. Masalan: XVI asrdagi kiyiladigan kiyimlar, ya`ni hashamdor formadagi og`ir, skladkali kostyumlar –erkinlikni, tsilindsimon va frak XIX asr ishbilarmon odamlarni, qizil ro`mol va teridan tayyorlangan ayollar kostyumidagi Oktyabr revolyutsiyasidagi davr teng huquqlilikni bildirardi. Kitobning mualliflari yozishicha, kiyimning ba`zi bir elementlari, masalan, baland yoqali ko`ylaklar va sorochkalar avvalda demokratik tamoyillaridan biri edi.

Kiyim bizni sovuqdan asraydi, shuning uchun uni ona himoyasiga qiyoslash mumkin. CHunki ona bolani kiyintiradi, echintiradi, shu bilan birga o`z mehrini beradi. Qadimgi Xitoy xalqi bayramona kiyimlarning rangini fasllarga o`xshatishgan. Qizil rangi – bu yoz faslini bildiradi. Olov rangi –Mars planetasiga o`xshatishgan. Oq rang –kuz faslini bildirgan. Bu rang ta`ziyani bildirgan. Qora rang –qish ramzi, shimol rangi, quduqdagi suvning rangini bildirgan. Sariq rangi –yozning oxiri,

nonning pishgan vaqti, Saturn planetasiga o`xshatishgan. Bu ranglarning kiyimga ta`siri juda katta bo`lgan.

Kostyumning yaratilishi har xil xalqlarda belgisi bilan, tili bilan qarama-qarshiliklarga ega bo`lgan. Kostyumning tili deganda – bir sohaning murakkab madaniyati hisoblanadi. Har qanday ko`rinish o`zining funksiyasiga ega, kerakli axborotni etkazadi. Masalan: 1919 yilda yaratilgan kostyum sharq xalqining fikricha bo`lgan. Kostyumning silueti bino gumbazini bildirardi. 1921 yilda yaratilgan modellar rangli kostyumlar yoki bahor kostyumi deb atashgan. Chunki kostyumda har xil ranglar tasvirlangan. Shunday kostyumlar yaratildiki, unda geometrik shakllar tasvirlangan. Kostyum to`g`risida har xil pozitsiyada gapirish mumkin. Bir strukturadan boshqa strukturaga o`tishda bir nechta operatsiya ishlari bajariladi. Keyinchalik vaqt o`tishi bilan kostyumlar, kiyimlar manekenlarga qo`yib tikiladigan bo`ldi. Bunday kiyimlar tanaga yopishgan, loyiqkina qilib tikiladigan bo`ldi. Manekenlarning qo`l va oyoqlarning harakati juda qulayliklarga ega bo`lib, shunga mos qilib yaratiladi. Kurimli bulishi uchun 1911 yildagi kiyimlarga fikrimizni qaratamiz. Libos 1913 yilda esa yanada rivojlandi.

Kiyim kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo`lgan. Hayvonlar terisi, baliq ichaklari, o`simliklar va hokazolar kiyim uchun material bo`lgan. Kiyimning tarixi rivojlanishiga, uning o`zgarishiga uslub va sabab bo`ladi.

Uslub –bu jamiyat moddiy va ma`naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilar obrazli tizimi ijodiy tamoyillarning tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir. Uslub –bu davrning badiiy tili, uning badiiy xarakteristikasidir. Davr o`ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya bilan belgilanadi. Har bir davrning o`ziga xos uslubi bo`ladi. U jamiyat hayotidagi muhim omilni aks ettiradi. Har qaysi tarixiy davr o`zi uchun xarakterli shakllarni tanlar, insonning ma`lum darajada kostyumda o`z ifodasini topgan muayyan estetik o`ziga bo`ysundirar edi.

Har qanday tarixiy davrdagi kostyum shaklining zaminida odamning muayyan darajada plastik nafis obrazi va gavdasi etadi. Har bir garmoniya (yunoncha harmonia –predmetlar, voqealar, butun qismlarning turli sifatlari bog`liqligi, kelishganligi, muvofiqligi, monandligi) va barkamolligi haqida, inson gavdasining estetik idealligi to`g`risida o`zining tushunchasini rivojlantiradi, bundan esa kostyumdagi mutanosiblik, ko`lam, geometrik hajm, shakl va rangning turli-tumanligi kelib chiqadi.

Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tikuvchilik rassomlarining qanchalik me`yor, estetik ideal bilan yondashganligi moddiy muhit predmetlari stilining, ko`p turlilikdagi birligining xarakterini belgilab berardi.

Antik dunyo san`atiga yuksak baho berib, uning bir butunligini ta`kidlab, unda san`at turlari bilan ishlab chiqarish darajasi o`rtasida me`yorning eng yuksak ko`rinishdagi uslub birligi bo`lganligini yozgan edi. Antik estetikada me`yor go`zallikning asosi, me`yor yo`qligi esa o`xshovsizlik (Aflotun) ekani haqidagi qoida bor. Yunonlar me`yor bilan garmoniya o`zaro mustahkam bog`liq bo`lib, bunda me`yor ijtimoiy amaliyotda ham norma vazifasini o`taydi, deb bilardilar. Ular odam gavdasini bir maromdagi shakl ideali deb hisoblardilar. Yunon arxitekturalari, haykallari va kostyumlari «odam gavdasining aks sadosi»gina edi (rasm 1).

Oddiy elkali kiyim –tunika




Rasm 1. Antik (qadimgi Rim) kostyumi

Qadimiy yunon kostyumining uslubi gazlama bilan inson shakli va tabiiy mutanosibligining garmonik birga qo`shilganligi bo`lib, bu elkadan pastga tomon bemalol osilib turadigan kiyimdagi behisob xilma-xil taxlamalarda, drapirovkalarda o`z ifodasini topgan edi.

Kiyim to`g`ri to`rtburchak gazlamadan iborat bo`lib, uni elka ustida bog`lab yoki elkaga tashlab qo`yib, gavdaning tabiiy go`zalligi va harakat bemalloliligini ko`rsatadigan va unga xalaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo`yilardi. Kiyinish san`atidan bahramand bo`lish va "standart" shakldagi xilma-xillikni topish uchun katta ustalik, madaniyat va did kerak bo`lardi.

Qadimgi Rim erkaklarining kostyumi



Rasm 2. Oddiy elkali kiyim – tunika: forma va konstruktsiyasi

Inson moddiy va ma'naviy madaniyatning hamma sohalarida cherkov hukmronlik qilgan. Ovro'po mamlakatlarida feodalizm mustahkam qaror topgan o'rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum xarakteri tarkib topdi. Odamzod gavdasining go'zalligidan zavqlanishi munosib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun gavdani qo'poldan-qo'pol, og'ir, keyinchalik esa cho'ziq shakllarga o'rab tashlar edilar. Tor yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun ko'ylak juda baland konussimon bosh kiyim va nihoyatda cho'ziq poyabzal bilan birga qo'shilib qad-qomat ko'rinishi uzgartirib yuborardi. Ayol kiyishining ideal obraziga, ya'ni ona, madonna obraziga murojaat qilish ana shu vaziyatning in'ikosi edi. Kostyumning yon tomondan ko'rinishida homilador ayol gavdasiga taqlid qilib qilingan bulardi. Kostyumning murakkab silueti chiziqlari gavdasining egri chiziq plastikasida muvofiq kelardi. Kostyumda bir tomondan nazokatni, onalikni ta'kidlashga intilish aks etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan cherkov ko'rsatmalariga binoan gavdani yashirishga, uni taxlamalarga ko'mib tashlashga intilish aks etgan edi.

O'rta asrlar kostyum gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan "g'ilof" tizimi rivoj topishini boshlab

berdi.

Bunday kostyum yuqori tomon intilgan butxonalar arxitektura shakllarining dabdabador, cho`ziqligida, turmush va odatlarning sertakallufligi va tamtaroqligida namoyon bo`lgan o`sha davr umumiy uslubning ifodasi edi. Ruhiy omil bilan moddiy omil o`rtasidagi ziddiyat kuchayib ketganligi natijasida o`rta asrlar san`atida disproportsiya bilan asimmetriya alohida ifodasini topadi.

Uyg`onish davrida estetik dunyoqarashlarni qayta baholash yuz beradi: yangi gumanistik ideologiya shakllanadi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yutuqlari davri, san`at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikel Anjelo kabi ulug` allomalar davri edi.

Bu davr kishisi faol, kuchli, g`ayratli, harakat qilib bilmaydi. U o`rta asrlardagi singari gavdasidan uyalmaydi, balki undan faxrlanadi. Odamning tabiiy qomati estetik ideal hisoblanadi. Taxlamalar qilingan va basavlat turadigan yubka, ko`plab bug`mali va kesmalari bor engli, ochiq dekolteli kostyumlar. Kiyim og`ir duxobadan, parcha, atlas, movutdan, mo`ynalardan tikiladi. Kostyumda juda ko`plab qimmatbaho tosh bezaklari. Soch oddiy, tabiiy holda, tur tortib, harir gazlama tutib, qimmatbaho ziynatlar taqib bezatilgan. Poyabzal – oyoqda bemalol turadigan keng boshmok.

Uyg`onish davridagi vazmin garmonik shakllarning aksi tariqasida absolyutizm, dvoryanlar madaniyati va dunyoni bo`lib olish maqsadidagi urushlar ta`sirida tarkib topgan Barokko uslubidagi XVII asr san`ati kelib chiqadi, san`atda tantanavorlik, ulug`vorlik, dabdabadorlik, tiyiqsiz zeb-ziynat, teatrona qalbaki xususiyatlar hukmron bo`lib qoladi.

Endilikda odam ma`naviy qudratini gavda proportsiyalarining go`zalligini namoyish qiladi; ijtimoiy moliyaviy dunyodagiq odam obrazi e`tibor markaziga o`tadi. Ataylab soxta holatda turish, teatrcha harakat, dabdabali sersavlat alomatlar yuzaga keladi.


Gavdaning plastikasi o`zgaradi, chunki podsho saroylarda oyoq uchida yurish lozim bo`lib, bu poshnali poyabzal paydo bo`lishiga olib keladi. Gavdani munosib qilib ko`rsatish uchun kostyumning elkasi, qorin qismi tagiga har xil tagliklar qo`yadilar. Ayollar kiyimi qimmatbaho gazlamalardan (parcha, muar, atlas, duxobadan) ko`pqavatli qilib tikilib, naqsh jimjimalari, bantlar, to`r tikilgan, qimmatbaho toshlar taqilgan harbiy kostyum (mushketyorlar kostyumi) hukmronlik qiladi. Parik modaga kiradi.

XVIII asr da Barokko uslubi o`rniga nozik – nafis Rokoko uslubi yuzaga keladi. Bu uslub o`zidan oldingi uslubning bevosita davomi bo`lib, undan shakllarinig nazokatlilik, murakkabligi bilan va g`aroyib jimjimadorligi bilan farq

qiladi. Bu uslub uchun mavjud voqelikdan kechib, orzu-umidlar, sevgi-muhabbat olamiga intilish xarakterlidir. Bu uslub ta'sirida manfaatdorlik vazifasiga aloqador bo'lmagan kostyum qaror topadi. Bunday kostyumda gavdaning bel qismi, ko'krak, bo'ksa kuzga tashlanib turadi.

Kostyum engil, nozik bo'lib, boshdan xek gul tikilgan, tyuldan, «gazsimon» materialdan, to'qima to'rdan, «ko'pchitib» qo'ygandek tikib bezatiladi.

XIX asrdagi Ovro'pocha kostyum tarixi 1789 yildagi frantsuz burjua revolyutsiyasining bo'ronli voqealaridan boshlanadi (rasm 3).



Rasm 3. Purpuen: forma va konstruksiyasi

YAngi davrga kapitalizmning, fan va texnikaning gurkirab taraqqiy etishi, yangi materiallar, tikuv mashinasi paydo bo'lishi xarakterli edi.

Natijada ilgari uslublarning hammasi: antik dunyo va qadimgi rim san'atiga o'xshab ketadigan klassitizm, ampir, soxta gotika, yangi borokko, yangi uslublar kaleydoskopdagi singari birin-ketin o'tadi. Bu taqlid qilish asri edi.

Konstruksiyaning vazifasi, mantiqi bilan kiyim materiali o'rtasida mustahkam aloqa hali yo'q. Kostyumda qator shakllar, siluetlar, karkaslardan xalos bo'lish va yana gavdani ushlash yordamida qism, ayrim materiallarni, bezaklarni va kostyumni manzarali tikishni afzal ko'rish ko'zga tashlanadi.

XX asr shakl va materiallar tanlashda qat'iy xizmatboplikni, soddalikni, bemalollikni o'z tamoyili deb e'lon qildi. Bu asr –fan-texnika taraqqiyoti asri, sanoati ishlab chiqarishning gurkirab o'sish asri, ayol kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuv asri, kosmos asridir. Bu asr o'zi uchun anchagina barqaror elementlar topib, shularni ishlatish yordamida qism

shakllarining nihoyatda ko'p xilma-xilligiga erishdi. Kostyumning obrazli ifodaliligi endilikda ilgarigidek boshqa vositalar yordamida erishiladi, ya'ni siluet tez-tez almashib turadi, chiziqlar injiq va doimiy emas; gavda bilan kostyumning o'zaro bog'liqdagi dinamikada ifoda topadi – kiyim bir qarasangiz gavdaga yopishib, gohida unga salgina terib, ba'zan esa gavdadan juda qochib turadigan bo'ladi. Kostyumni shakllantirishda xizmatboplikni asos qilib olgan dizayn ya'ni sanoat buyumlarni badiiy loyihalash faol rol uynaydi.

Moda (frants, mode –me'yor, tarz, usul) paydo bo'lishi anchagina murakkab voqea bo'lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog'liq, insonning juda ko'p faoliyatiga o'tadi.

Moda – turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq hukmron bo'lib turishidir.

Moda bilan uslub o'rtasidagi farq zaminida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning o'tmishga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o'zaro bog'liqligi aks etadi.

Umuman modaga hayratlanib va xayrixohlik bilan qaraydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bo'lib, ular o'zining etuk bo'lmagan yoki ochiqdan-ochiq konservativ didlarni boshqalarga o'tkazish mumkin deb hisoblaydilar. Modelerlarning har bir yangi taklifiga ular ashaddiy qarshilik ko'rsatadilar. Almashlab turish modaning eng muhim xususiyati. Yangi moda paydo bo'lganda kostyum o'zining estetik qadrini yo'qotadi. Bu esa modaning xarakteridagi ziddiyatni ko'rsatadi. Moda vaqtinchalik va o'tib ketadigan tushuncha, lekin unda go'zallik tushunchasi sifatida saqlanib qoladigan estetik topilmalar ham bo'ladi. Moda – zamonaviy degani, estetik qiymat esa vaqt o'zgarmas bo'lib qoladi. Biroq modaning ziddiyatliligi uning progressivligini inkor etmaydi. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo'ladi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma'qul echimlarini tanlab oladi. «Moda – bu yangilanish! Bu tabiat rioya qiladigan tamoyil! Daraxt eski bargini odam esa jonga tekkan kiyimini tashlaydi. Narsalar haddan tashqari o'rganish bo'lib ketsa, odam ulardan tez charchaydigan bo'lib qoladi. Moda zerikarli bir xillikdan xalos qiladi. Odamlar bir-biriga yoqishni xohlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi ko'rinsam deydi – bu tabiiy ehtiyoj».

Moda – bu taqlid va yangilik. Lekin bunda hamma vaqt yangilikka yoki g'ayritabiiylik taqlid qilinavermaydi. SHaxs bilan jamiyatning o'zaro munosabatida taqlid bilan bir qatorda buning aksi bo'lgan hodisa – o'ziga xoslik namoyon etish

ham bo`ladi.

Moda qaerda paydo bo`ladi. Ko`pchilik modellar uyida deb hisoblaydi. Modellar uyi bo`lmaganda moda qanday paydo bo`lgan. Hamma vaqt modaning avtori bo`lganmi. Moda tarixchisi Beyonning ta`kidlashicha, modaning asosiy chizig`ini hech kim yaratmaydi. Moda jamiyat bilan birgalikda o`sib boradi va taraqqiy topadi, u – zamona farzandi, lekin o`zining qat`iy xarakteri bor. Muayyan konkret moda ko`chkiga sabab bo`ladigan qor soqqaga o`xshab ketadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, iqlim, tevarak-atrofdagi tabiat xalq an`analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, texnika sportga ommaviy qiziqish, yangi materiallar paydo bo`lishi kosmik davr kabi turli-tuman omillar modaning shakllanishiga ta`sir ko`rsatadi.

MA`RUZA №2

MAVZU: KIYIM KOMPOZISIYASI ASOSLARI. KOMPOZISIYA KATEGORIYALARI. KIYIM HAJMIY-FAZOVIIY SHAKLINING XUSUSIYATLARI

Kompozisiya nazariyasi kuzatilayotgan hodisalar orasidagi eng umumiy va eng muhim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo`ladi. Kostyum Kompozisiyasida tektonika bilan hajmiy-fazoviy struktura ana shunday kategoriyalar hisoblanadi.

Tektoniklik. Tektonika shakldagi konstruktsiya va material bajarayotgan ishining ko`zga ko`rinib turadigan aksidir.

Tektonik shakl – bu sanoat buyumi shakli konstruktsiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib etish, ularni ko`rsatib berish nuqtai nazaridan ifoda topgan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli tektonik shaklini topish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Rassom material xususiyatlarini, uning konstruktsiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini – bularning hammasini umumiy g`oyaga, ya`ni badiiy va kompozitsion mo`ljalga bo`ysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo`rttirib ko`rsatadi. Har bir materialning o`ziga xos xususiyatlari bo`lib, ana shu xususiyatlar muayyan shaklga asos qilib olinadi. Masalan, shifondan bo`laklari minimal miqdorda bo`lgan mayin, plastik, engil shakl yaratilsa, parchadan qattiq, «quruq» geometrik shakl yasaladi.

Materialdan buyumning qanday ishlash nuqtai nazaridan foydalanish har qanday buyumning chinakam tektonikligiga erishishning muhim shartidir. Agar muayyan materialning potentsial-konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanilmasa yoki, bundan ham yomoni, uni g`ayritabiiy tarzda ishlashga majbur etilsa, unga tektonika buzilishidan kutilib bo`lmaydi. Odamning harakatlari natijasida chinakam zo`r kelishlar hisobga olinmasa, shakl konstruktsiyasini ishlayotganda notektonikli yuzaga keladi.

Qachonki tektonika muayyan badiiy yaxlitlikning uzviy qismi bo`lsa, shundagina u aniq-ravshan va ifodali bo`lib chiqadi. Fan-texnika revolyutsiyasining yutuqlari – yangi materiallarning paydo bo`lishi tektonikaga katta ta`sir ko`rsatadi.

Nima uchun tektonika Kompozisiyaning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Gap shundaki, konstruktsiya va shaklning konkret materialda ifoda topgan o`zaro bog`liqligi – bu eng muhim jihat bo`lib, u butun buyumning Kompozisiyasini va shu Kompozisiya ustida olib borilgan ishni, ya`ni kompozitsion priyomdan boshlab va shakl xarakterini hamda uning nyuanslarini topishga qadar

Kompozisiya vositalaridan foydalanishgacha bo`lgan ishni belgilab beradi.

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o`zaro muayyan ta`sir etish nuqtai nazaridan qarash, ya`ni uni hajmiy-fazoviy struktura, deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba`zan esa juda murakkab bo`ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat`i nazar undagi barcha elementlarning o`zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakkam uyg`unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi.

Kostyum yaratilayotganda uning nimaga mo`ljallanganligi va qanday sharoitda ishlatilishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbop va chiroyli bo`lishi kerak. SHuning uchun kostyumning shakli, konstruktiv hal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya`ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo`ladi.

Qismlarning muayyan tartibda tashkil topganligi, ya`ni strukturasi kostyumni xarakterlab beradi. Struktura degan obrazli, funktsional va texnik echimga bog`liq bo`lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy tizimini tushunish kerak.

*SHakl geometrik ko`rinishi* shaklning uchta fazoviy koordinatalaridagi o`lcham mikdorlarining nisbati bilan, umuman shakl va detallari yuzasining xarakteri bilan belgilanadi. Kiyim shaklini ko`rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning hajmdorlik darajasidan, siluet va chiziqlaridan kelib chiqadi.





Hajmdorlik darajasi – bu uchta fazoviy koordinata bo`ylab shakl o`lchamlarining nisbatidir. SHaklning hajmdorlik darajasi bitta o`lchamli bo`lsa, chiziqli xarakteri, o`lchamli bo`lsa, tekislik xarakterida (4-rasm, b); kiyim shakl uch o`lchamli bo`lsa, hajm xarakterida (4-rasm, v) bo`ladi.

Buyumning hajmdorlik darajasini tanlash kostyumning ko`rinish va nimaga mo`ljallanganligi bilan belgilanadi. CHiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagi har qanday ishga mo`ljallangan kostyum uchun va hamma turdagi gavdalar uchun, hajm xarakteridagi shakl esa asosan bo`ychan, ozg`in gavdalarga mo`ljallangan bashang kiyim uchun tavsiya etiladi.

Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proportsiyasini kostyumning silueti deb ataladigan bo`lgan. Odatda kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq paytlarda profil siluetlar xarakterlaydi. Siluet ma`lum davr mobaynida modada yuz bergan xarakterli o`zgarishlarini umumiy tarzda aniqlash imkonini beradi.

Siluetlarni quyidagicha sinflash mumkin; gavdaga yopishib turish darajasiga binoan – yopishib turadigan, sal yopishib turadigan, bimalol turadigan (4-rasm).

Kiyim silueti 5 xil bo`ladi:

1.	2.	3.	4.	5.
				
yopishuvchi	o`ta yopishuvchi	to`g`ri	trapetsiya	teskari trapetsiya

bel chizig`ining holatiga binoan – bel chizig`i tabiiy joyda, bel chizig`i yuqoriroqda ko`tarilgan yoki pastroq tushgan, bel chizig`i sezilmaydigan (4-rasm); etak chizig`ining tizzaga nisbatan holatiga binoan – kiyim uzunligi tizzagacha, «mini» – tizzadan yuqori turadigan kalta, «midi» boldirlar yarmigacha tushadigan o`rtacha va «maksi» – to`piqqacha tushadigan uzun; bo`ksa, ko`krak chiziqlarini sezilish darajasiga binoan va elka chiziqlarining holatiga binoan (elkalari ko`tarilgan, elkalari kengaytirilgan).

Aniqroq tasavvuf etish uchun siluetni geometrik shaklga nisbat berib qaraladi, uni alohida predmetlarga; bo`chkachaga, urchuqqa va hokazo; o`simliklarga: chuchmumaga, ochilmagan lolaga, bananga va shu kabilar; harflarga taqqoslanadi

Kiyimning konturlarini kiyim alohida qismlarining, detallarining konturlarini chiziqlar deb olsa bo`ladi. Kiyim Kompozitsiyasi to`g`ri, egri va siniq chiziqlaridan tuziladi Kiyim quyidagi asosiy chiziq guruhlari bo`ladi.

Siluet chiziqlari – shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziq. (4-rasm).

Konstruktiv chiziqlar – kiyim shaklini hosil kilishdagina qatnashadigan chiziqlar; elka choklari, vitochkalar, eng o`tqazish choklari.

Konstruktiv-dekorativ chiziqlar ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarini bajaruvchi chiziqlar: bo`rtmalar, koketkalarini ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, bo`rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar.

Dekorativ chiziqlar – dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qo`yma burmalar, ikki tomonlama qo`yma burmalar, tasmalar, turlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar.

SHaklning katta-kichikligi. SHaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta-kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning ularni bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat

ko`rinishi o`xshash kiyimlarnigina va ularning tarkibiy qismlarinigina katta-kichiklik jihatidan taqqoslash mumkin.

Massa – bu umuman kiyim shaklini yoki undagi alohida qismlarning ko`rinishidagi og`irlik miqdori. SHakl massasining qurib idrok etilishiga quyidagilar ta`sir etadi.

SHaklning katta-kichikligi – kattaroq shaklning massasi kattaroq tuyuladi.

Hajmdorlik darajasi – hajm xarakteridagi shaklning massasi maksimal, chiziqli xarakteridagi massasi esa minimal bo`lib ko`rinadi.

SHaklning o`z chegarasi doirasidi konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativ chiziqlariga qanchalar to`lganlik darajasi – kiyim shakli chiziqlarga siyrak to`lgan bo`lsa, massasi minimal, eng ko`p to`lgan bo`lsa massasi maksimal bo`lib ko`rinadi.

Materialning rangi, rasmi va fakturasi – fonini zich to`ldirib turgan yirik rasmlari odam yoki to`q rangli metallar va fakturasi yaltiroq materiallar massasi maksimal, fonini siyrak to`ldirib turgan mayda rasmlari ochiq rang, oqish materiallar fakturasi siyrak materiallar massasi minimal bo`lib ko`rinadi.

Kiyimlarni loyihalayotganda uning massasini yoshga, mavsumga va nimaga mo`ljallanganiga bog`liqligini hisobga olish kerak. Masalan, yasli yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimning massasi engil bo`lishi uchun ularni hamma vaqt ochiq, mayin rangli, mayda siyrak rasmlari materiallardan tikiladi; qishki kiyim ham ko`rinishda engil bo`lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni nisbatan katta bo`ladi, shuning uchun ular hurpaygan turli fakturali materiallardan tikiladi; maktab bitiruvchilarining tantana marosimidagi ko`ylaklarini oq, pushti, havorang va boshqa rangdor gulli materiallardan tikiladi, chunki bunda yoshlikka xayolchanlik xos bo`lgani uchun, sho`xchanlik, qushdek engillik, parvoz hissi sezilib turishi kerak.

MA`RUZA № 3

KOMPOZISIYA XUSUSIYATLARI VA VOSITALARI. KOSTYUMDAGI PROPORTSIYALAR VA NISBATLAR. KOSTYUMDAGI METRIK VA RITMIK KOMPOZISIYASIDAGI RANGNING ROLI

Kostyum Kompozisiyasining uyg`un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetrik va asimmetrik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor.

SHaklning yaxlitligi. SHaklning yaxlitligi konstruktiv echim bilan uning kompozitsion mujassamligi o`rtasidagi aloqa mantiqini va uyg`unligini aks ettirgan bo`ladi.

Har qanday Kompozisiyaning asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarning bir-biriga bo`ysunganligiga asoslangan muayyan tizim deb qaralsa bo`ladi. Bunda asosiy va bo`ysungan qismlar bir butunlik tashkil etib, o`zaro bir-birini kuchaytiradi.

Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham albatta asosiy qism yoki kompozitsion markaz mavjud bo`lib, boshqa qismlar unga bo`ysunishi kerak. Asosiy qism yaxlit Kompozisiyada hukmron bo`lib turadi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo`lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko`krakda, bo`ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hokazo erda bo`ladi.

SHakl elementlarining o`zaro tengsizlikni belgilaydigan kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligi ta`kidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatlari asosida kompozitsion markazni bo`rttirib ko`rsatishga erishiladi. Quydagi shu qonuniyatlarni ko`rib chiqamiz.

Miqdor qonuni. Bir turli bezakning katta-kichikligi, hajmi, massasi yoki miqdori kattaroq bo`lgan boshqa qismlaridan ustunroq kelib turadi.

Markazda bo`lish qonuni. Bo`rttirib ko`rsatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda bo`lishi boshqa hamma jihatlarini teng bo`lgan holda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko`rsatadi.

Sifat qonuni. Xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jihatidan ko`proq bo`lgan qism ustun bo`lib turadi. Rasmiy xarakterda bo`lgan har qanday turli bezaklarning har xil faolligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko`rsatish priyomlaridan biri bo`ladi.

Ma`no omili qonuni. Bir butunning ma`nosi bor bezakli qismi rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turadi.

Simmetriya va asimmetriya. Simmetriya – Kompozisiyaning eng yorqin va

ko`zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri (rasm 5).

«Simmetriya... uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go`zallikka va kamolotga etishmoqchi va buni yaratmoqchi bo`lib kelgan o`sha g`oyadir". Kiyim Kompozisiyasida simmetriya masalalari muhim rol o`ynaydi. Bu ikki jihatdan: materialdagi rasm Kompozisiyasida va kostyumning o`zini shakllantirishda o`z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasini va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin.

Asimmetrik Kompozisiya ham simmetrik Kompozisiya singari funksional vazifani hal etishning ob`ektiv natijasi bo`ladi. Lekin asimmetrik shakl ustida ishlash murakkabroq, kompozitsion muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta`minlash darajasida taraqqiy topgan intuitsiyani talab qiladi.



Rasm 5. Kiyim va poyabzaldagi simmetriya va asimmetriya

Isimmetriyaning kundalik kostyum Kompozisiyasida yorqin ko`zga tashlanadigan emasligi undan shakl xususiyatlarining ozgina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday Kompozisiyalar simmetriya ichida asimmetriyani ko`rsatish maqsadida hal etiladi.

Statiklik va dinamiklik. Kompozisiyaning ifodaligi, uning tushunishga


qulayligi shaklning bo'ysungan qismlardan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo'lib ko'rinishi qay darajada hosil qilinganligiga bog'liq.

Statiklik – shakl turg'unligining, tinchlik holatining bo'rttirib ifoda etilganidir. SHaklning statikligi o'lchamlar tengligini yoki o'lchamlar nyuansini xarakterlaydi.

Gavdani ko'rib idrok etish kostyumdagi dinamikaga qanday ta'sir etilganiga bog'liq: agar harakat yuqoriga tomon yo'nalgan bo'lsa, gavda uzunroqday, pastga tomon yo'nalgan bo'lsa, kaltaroqday ko'rinadi.

Kompozisiya vositalari orasida proportsiyalarni, o'lcham nisbatlarini birinchi o'ringa qo'yish kerak – butun Kompozisiyani qurishning asosi mana shu. Kiyim detallari o'zicha qanchalik yaxshi bo'lmasin, lekin butun hajmiy-fazoviy strukturani aniq proportsional tizim birlashtirib turmasa, shaklning bir butun bo'lib chiqishi qiyin.

Proportsiyalar – bu kiyim alohida qismlardagi mos o'lchamlarining bir-biriga hamda odam gavdasidagi mos o'lchamlariga bo'lgan nisbatidir (rasm 6).



Rasm 6. Sumka (a) va poyabzallar (b) Kompozisiyasidagi proportsiya

Kostyum Kompozisiyasida ikki xil asosiy nisbat bo'lib, ularning oddiy nisbatlar va irrirtsional nisbat deb ataladi.

Irritsional nisbatlar – bu ko'pincha geometrik tuzilma yordamida olinadigan kasr sonlar nisbati.

Kostyumda shaklning hamma xususiyat jihatlarini proportsiyalab olinadi, ya'ni detallarning o'lchamlari proportsiyasinigina emas, balki ifodali faktura sathining, gul, dekorativ elementlar, shakl alohida qismlar sathining proportsiyalari ham topib olinadi.

Masshtab va masshtablilik. Kiyimda proportsiya garmoniyaning yana bir muhim vositasi – masshtablilik bilan ajralmaslikda bo'ladi.

Masshtablilik – shaklning va undagi elementlarning odamga nisbatan, tevarakatrof fazoga va boshqa shakllarga nisbatan mosligida.

Kiyimning masshtabliligi uning absolyut katta-kichikligiga emas, balki uning odamga moyilligiga qarab belgilanadi. Kostyum va uni tashkil etgan hamma elementlar odamning o'lchamlariga – uning bo'yiga, gavda tuzilishiga hamma vaqt biron nisbatda, ya'ni mos bo'ladi.

Kontrast, nyuans, o'xshashlik. SHakl elementlari o'xshashlik tamoyiliga kontrastlik tamoyiliga binoan birlashgan bo'lishi, ya'ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl, rang, hajmlilik darajasi, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Kontrast Kompozisiyasidagi turli yo'nalishlarning kurashi, bir-biriga qarama-qarshiligi bo'lib, bu rassomlarning hamma vaqt eng keng foydalanib kelgan vositalardan biri bo'lib kelgan.

Kontrastga asoslanib tuzilgan Kompozisiyaning mohiyati uning ko'rinishi ta'siri faolligida. Nyuans nisbatlaridan kontrast nisbatlarining farqi shundaki, bular darhol ko'zga tashlana qoladi. Zerikarli geometrik shaklning ifodaliligini undagi ichki chiziqlarning, rangning, fakturaning bir-biriga ta'siri kontrastligidan foydalanib oshirsa bo'ladi. O'xshashlik tamoyili – bu asos qilib olingan elementlarning kostyum Kompozisiyasida taraqqiy topib, turli variantlarda rivojlana borishi.

Nyuanslar Kompozisiya vositasi tariqasida proportsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarda, dekorda, plastinkada, lekalo qo'yib chiziladigan murakkab egri chiziqlar yordamida shakllar tuzishda ko'rinadi.

Kostyum Kompozisiyasini nyuansli hal etilishi hamma yoshdagilarga, hamma tur qomatlariga va har qanday ishga mo'ljallanganda ham to'g'ri kelaveradi.

Ritm tushunchasi umumiy ko'rinishda – bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashlanib turishi. Ritm hosil qiladigan bog'lanish kuchi anchagina bo'lib, u kostyumning hamma qismlariga ta'sir etib turadi. Ritm har qanday asarga musiqiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi.

SHakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning takroriyligi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi. Aktsentli elementlar faol elementlar deyiladi,

aktsentsizlari esa passiv elementlar deb yuritiladi. Faol elementlar o`rtasidagi oraliq dinamik odim deyiladi. elementlar harakatining orta borish tezligi sur`at deyiladi.


Ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarning birga qo`shilganidan iborat qator murakkab metrik qator deb ataladi.

SHakllarning va ular o`rtasidagi intervallarning birii-ketin qonuniy o`zgara borishi shakllarning joylanishining ritmik tartibi deyiladi.

Predmetning eng muhim axborot sifatlaridan biri rang hisoblanadi. Amaliy san`at predmetlariga rangning vazifasi turlicha. Bular psixologik, ijtimoiy, estetik vazifalardir (rasm 7).

Urushlar, epidemiya, ocharchilik odmi kiyimlar tarqalishiga sabab bo`lsa, ulardan keyin yorqin rangli kiyinish an`ana tusiga kirar edi.

Rang hamma vaqtlarda jins-yosh farqini bildiradigan vosita bo`lgan. Bolalar kiyimi nozikroq tusli bo`ladi, o`smirlar kontrast ranglarni ma`qulroq ko`radi, katta yoshlilarga chuqurroq rang tuslari yoqadi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimidan ko`ra yorqinroq va ko`p rangliroq bo`ladi.



Rasm 7. Asosiy ranglar xalqa sxemasi

Xromatik ranglarning xususiyatlari quyidagilar:

- Rang tusi – rangning shartli belgisi (qizil, ko`k, to`q sariq, havo rang) rangning nomi shartli yoki bironta predmet, o`simlik nomiga yaqinlashtirib aytiladi;

- rang to'qligi – rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan xarakterlanadigan rang tusi qanchalik sofligining ko'rsatkichi;
- oqishlik – xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi. Ranglarning gavdani o'zgartirib ko'rsatish xususiyati ham bor.

Gavdani iliq ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi, sovuq ranglar uzoqlashtirib va kichraytirib ko'rsatadi.

Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi quyidagi tamoyillarda yuzaga keladi:

- o'xshash ranglar – bir xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining bir choragidagi ranglarning birga qo'shilgani;
- kontrast ranglar – har xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining qarama-qarshi turgan choraklardagi ranglarning ko'kish yashilning va biriga qo'shilgani (rasm 7).

Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgani kiyim Kompozitsiyasida juda ifodali bo'lib chiqadi. Oq rang sof xromatik rang tusining kuchi va jarangdorligi yuzaga keladida, bayramona manzaralilik hisi tug'iladi; oq rang bilan mayin ranglar uzviy va osongina qo'shib, soflik va bashanglik hisini yuzaga keltiradi

Qora rang bilan sof xromatik rang birga qo'shib, ko'zga tashlanib turadigan va keskin ko'rinadigan ranglar hosil qiladi. Qora rang tusning yorqinligini va sofligini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega. Atrofdagi ranglar ta'sirida rang oqishligining o'zgarishi oqishlilik kontrasti deyiladi.

Rangni idrok etish sun'iy yoritish, materialning fakturasi va zichligi qandayligiga qarab o'zgaradi.

MARUZA № 4

MAVZU: KIYIMDAGI DEKOR VA TANLANADIGAN MATERIALLAR, MATERIALLARNING PLASTIK VA MANZARALI XUSUSIYATLARI, MATERIALLARNING RASMI VA FAKTURASI

Kiyimni hajmli shakl deb qaralganda uning qanday materialdan tikilganini bilish kerak (gazlamalar, trikotaj, mo`yna, charm, zamsha, noto`qima materiallar qavat gazlamalar, plyonka, yog`och, plastmassa, shisha va boshqalar).

Bu materiallardan har birining o`z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag`allik va shu kabilar), dekorativligi (faktura, rang, naqsh gul), fizik-mexanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho`ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gigienik xususiyatlari (havo o`tkazuvchanlik, nam o`tkazuvchanlik, chang o`tkazuvchanlik, issiq o`tkazuvchanlik) bo`lib, shaklning xarakteri va konstruktiv echim qanday hal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.

Masalan, harir shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop bo`ladi, shuning uchun ulardan choklari minimal darajada ham, yumshoq ovalsimon shakl yaratilishi kerak, bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar, klyosh bichiq hisobiga shakl hosil qiladi; yiltiroq, tashlanib turadigan (krepsatin tipidagi) gazlamalarning drapirovkabop ekanligi etarli darajada hajmli, gavda bo`ylab «sirlanib» osilib turadigan kiyim tikish imkonini berib, gazlamaning jimirlashib uning yuqoridagi xususiyatlarini kuchaytirib ko`rsatadi; sintetika, aralash jun gazlamalardan juda aniq, qat`iyan geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.

Fizik-mexanik xususiyatlarni bilish to`g`ri shakl berish uchun ham (masalan, trikotajning cho`ziluvchanligi kishi gavdasiga yopishib turadigan kiyim tikish imkonini beradi), zarurat bo`lganda tikishdan oldin materiallari dekatirovka qilish (namlab-isitib ishlov berib, kirishmaydigan qilib olish) uchun ham imkon beradi.

Materiallarning gigienik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil qilishga ta`sir etadi. Masalan, havo o`tkazish va nam o`tkazishi yomon materiallardan bo`lgan kiyimlarni, kiyim tagidagi havo ventilyatsiya bo`lib turishi uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tikish tavsiya etiladi.

Gazlamalarning dekorativ xususiyatlari shaklning geometrik ko`rinishini tanlashdagina emas, balki shakl hosil qilish tamoyillarni ham, shakldagi ichki echimlarni tanlashda ham katta ahamiyatga ega.

Faktura materialning eng ifodali xususiyatlaridan biri hisoblanadi, u seziluvchan axborot manbai bo`lib xizmat qiladi.

Faktura – bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura

tabiiy (mo`yna, teri, yog`och, zamsha) va mexanik yo`l bilan olingan hosila bo`ladi. Materiallar silliq, g`adir-budur, yaltiroq, xira, tukli fakturali bo`lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to`qimachilikda, to`r to`qishda olinganiga, yuzasidagi bo`rtiq qismlarining baland-pastligini va iplarning material zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog`liq. Sath birligiga to`g`ri keladigan faktura elementlarining katta-kichikligi va miqdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo`ladi.

Faktura xususiyatlariga etarli e`tibor bermaslik ko`pincha bitta kiyimda turli materiallar noqulay birga qo`shilib qolishiga olib kelib, bu shaklni bo`linib va nomonand ko`rinadigan qilib qo`yadi (rasm 8). Badiiy reja va echimlar turliligi sababli, ekspluatatsion, texnologik yoki iqtisodiy zarurat boisdan bitta kiyimda har xil fakturalar ishlatish mumkin. Bunda biron kiyimda ham, umuman kostyumda ham fakturalarning sifat va miqdor jihatidan birga qo`shilishlarini bo`rttirib ko`rsatgan ma`qul.



Rasm 8. Kostyumdagi fakturalarning muvofiqligi

Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo`ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, engillik va vazminlik va boshqa taasurolar hosil qilishi mumkin. Faktura tanlashda mavsum, kiyimning nimaga mo`ljallangani, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Kechqurungi bashang kiyimlarga oliyjanob yaltillaydigan sidirg`a materiallar ishlatiladi, lekin olachipor gazlamalar zinhor-bazinhor to`g`ri

kelmaydi.

Gazlamalarning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko`z aldanishi paydo bo`lishiga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Masalan, ko`rinishi vazmin, xira, to`qli fakturalar shaklni kattalashtirib ko`rsatadi.

SHaklning va umuman gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. SHaklni naqsh guldan ajratib bo`lmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti, bir qismi bo`lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko`p asrli tarixi, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor.

Materiallarning ko`pdan-ko`p xil gullarni quyidagi dekorativ motivlar ko`rinishida bo`ladi deb qarash mumkin:

1. Abstrakt yoki geometrik motivlar.
2. Realistik yoki predmetli motivlar (o`simliklar, hayvonlar, predmetlar).

Aralash motivlardan iborat rasmlar juda ko`p ishlatiladi. Rasm tasviri naturalistik yoki tillashtirilgan, yassi yoki hajmli bo`lishi mumkin.

Naqsh gul yuzani bir tekis to`ldirib turishi (harakatlantiruvchi yoki yoki rapport-takrorlanuvchi bo`lishi) mumkin, yoxud muayyan uchastkalarda joylashgan (kupon holidagi yoki hoshiyadagi) bo`lishi mumkin.

Turli kiyim turlarini modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo`lish kerak va naqsh gul xarakteri bilan xususiyatlarini jins-yoshga, gavda tuzilishining tipiga kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo`ljallanganiga, tikish usuliga qarab hisobga olish kerak.

Bolalar kiyimidagi naqsh gul Kompozitsiyasi ayniqsa aniq-ravshan, tushunish oson, ko`pincha qiziq rasmlar bo`lishi kerak, chunki bolalar kiyimdagi naqsh gulining faqat estetik emas, bali bilim o`rtirish vazifasi ham bor. Katta yoshli kishilar mayda yoki o`rtacha gulli, bosiqroq bo`g`iq tusni ma`qul ko`rishadi.

Tasviriy motivlarning, razmga bog`liq rang va tus echimlarining va rasm joylashtirishining eng emotsional jarangdorligi, ifodaliligi, xilma-xilligi yoshlarning kiyimida bo`ladi, deb hisoblanadi. Kundalik kiyimda mayda va o`rtacha gulli gazlama ishlatiladi, bordi-yu, gazlama yirik gulli bo`lsa, unda gullar soni koloritli bo`lishi kerak. Bashang kiyimlarda va istirohat kiyimlarida rasmlar diapazoni juda keng bo`ladi.

Rasmi murakkab materiallardan kiyim modellashtirganda hamma detallarda rasmlar yo`nalishi bir tomonga qaragan bo`lishini, o`q chiziqlarining joylashishini, umumiy rang echimini hisobga olish kerak. Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitochkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida rapport saqlanishini nazorat qilib borish kerak.

Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo`rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo`lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko`rinarli qilish uchun sidirg`a gazlamadan mag`iz, tasma va hokazolarni qo`yib, qo`shimcha bezash kerak bo`ladi.

Kostyumdagi dekorativ bezak. Bezak Kompozisiyaning mustaqil elementi emas – bu qo`shimcha, ziynat bo`lib, kiyimda u yo`q bo`lishi ham mumkin. Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o`z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo`ladi.

Kiyimni modellashtirish tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo`lib, ular Kompozisiyadagi asosiy g`oya bo`lishi yoki kostyumdagi mo`ljallangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo`lishi mumkin. Bezakdan kiyim shaklini yoki bir qismini bo`rttirib, shaklni bo`laklarga ajratib ko`rsatish uchun foydalaniladi. Dekorativ bezakning dekorativ (drapirovka, burma, mayda taxlama, gofre, plisse, dekorativ va utilitar) va konstruktiv ahamiyati (kashtalar, qo`yma burmalar, applikatsiya va boshqalar) bo`lishi mumkin.

Xozirgi son-sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi guruhlariga ajratsa bo`ladi:

1. Barcha turdagi bo`rttirma choklarni, taxlamalar, bo`rtma burmalar, drapirovkalar, plisse, gofre, bezak baxyaqatorlarni tikish natijasida hosil bo`ladigan bezaklar.

2. Kiyimni o`z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qo`yma burmalar, ikki tomonlama qo`yma burmalar, aylana burmalar, beykalar, mag`izlar, bo`rtma mag`izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, fatalar, pogonlar).

3. Maxsus bezak materiallar (to`r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.

4. Furnitura (tugmalar, tukilar, dekorativ pistonlar, blokcha-pistonlar, «molniyalar» va boshqalar).

5. Kashta, qoplama bezak, emblemalar.

- b. Boshqa materiallar (mo`yna, teri, trikotaj, zamsh, to`r) yordamida bezash.

7. Kiyim detallarini bosma gul solib bezash.

Bezak turini, uning joyini tanlash kiyimning turi va nimaga mo`ljallanganiga, uning joyini tanlash kiyimning turi va nimaga mo`ljallanganiga, kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins-yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariga, xarakteriga bog`liq.

MAVZU: KOSTYUM AXBOROT VOSITASI. KOSTYUMDAGI BELGI VA TIMSOLLAR

Jamiyat rivojlanishi bilan birgalikda kiyimda ham tabiat va jamiyatdagi o`zgarishlar aks etadi. Kiyimdagi shakl va rang tabiiy elementlarning timsoli bo`lib ularning takrori hisoblanadi. Tabiiy elementlar bo`lib, hayvonot olami yoki biologik jarayon imitatsiyasi (tatuirovka, barg va teridan yopinchiq) tushuniladi.

Har qanday davr va xalqning xususiyatlari o`ziga xos arxitektura interer atrof-muhitga bog`liqlikni o`zida qayd etadi. SHu tufayli kiyimni san`atning boshqa elementlari nafaqat birgalikda balki uslub rivojlanishda asosiy ahamiyatga ega deb aytilish mumkin. Haqiqiylikning kiyimda aks etishi qanday vosita, usul va tizimda foydalanib amalga oshiriladi? Bu savol bir necha 10 yillikni o`z ichiga qamrab oladi. Kiyim kommunikatsiyasining ma`lum bir ko`rinishi bo`lib, u uslub, moda, o`sha davr estetik va ilmiy kontseptsiyalari, jamiyatning, moddiy va ma`naviy hayotning tarzi, darajasi, texnologiyasi va hokazolari to`g`risida ma`lumot beradi. Haqiqiylikning dialektik tasviri shundaki, obrazni o`rganish shakli unda qarama-qarshilikni aks ettirish belgi shartlili elementlardan foydalaniladi. Birinchi navbatda belgilar til doirasida ideal obrazlarning moddiylashtirilgan shakli bo`lib xizmat qiladi. SHuni e`tiborga olish kerakki bizni haqiqiylikni belgilar yordamida aks ettirish jarayoni emas, balki kiyim sohasidagi o`rganish va ijod imkoniyatlarini kengaytirish shartlari qiziqtiradi. Kiyimning madaniyat elementlari (tasviriy san`at, adabiyot, teatr)ga nisbatan egallaydigan o`rnini aniqlash uchun kiyimning mazmuniy xususiyati yoki kommunikatsion mohiyatini anglash e`tiborga loyiqdir. Agarda kiyim tuzilishi shakl va atrof-muhit jihozlari strukturasiga adekvatligi aniq bo`lsa, u har qanday ko`rinishdagi ma`lumotni bera olishga qodir. Xuddi shunday holda kiyimni kommunikatsiyaning ko`rinishi sifatida ko`rib chiqish mumkin. Kostyumda ham arxetikturadagi singari ma`lum bir sodir bo`ladigan voqelik va jihozlarning asotsiativ tushunchalari hukmronlik qiladi. Kiyim rivojlanish tarixining davomiyligi davrida uning shakli geometrik va abstraktiv elementlari asosida ko`riladi. Bu zamonaviylik kiyimda aks etmaydi degani emas. Kiyimning mastikligi, ritmikligi va kompozitsion tarkibi va ularning tartib joylashuv ritmi ma`lum emotsional his-tuyg`u yoki oddiy emotsional tuyg`u chaqiradi.

Kiyim obrazining haqiqiylik bilan taqqoslash jarayoni uning til mohiyati yoritilishi asosida yotadi va u (semiotika va sintakmatika) atamalari bilan ifodalaniladi.

Semiotika – ob`ektning sifati o`ziga xosligi va ifodalash ma`nosini yoritadi. B.V. Mantanov yozishiga ko`ra gnosiologik shartlilik bilimining majburiylikdan xalos etib keyingi ifodani oldinlab – ideal modelga o`tish demakdir, ya`ni ifoda voqelikdagi asosni ko`rsatish demakdir.

Kiyimdagi tizimli timsoli – rassomdan tomoshabinga axborotning uzatilishi. Bunday bog`liqda kiyim va kod ma`lumotlar manbai o`rtasida kommunikatsiya o`rnatilish usuli hisoblanadi. Bunda kiyim mazmuni ma`lum belgi, timsol va boshqalar bilan «kodlashtiriladi». S. ezsheezining badiiy asarning tomoshabin tomonidan qabul qilish darajasi; tajriba, xayoliy holati, axloq, ijtimoiy kelib chiqishga bog`liq. Demak, ma`lum bir ifoda turli tomoshabin tomonidan o`zgacha qabul qilinishi mumkin. Rassomning g`oyasi ma`lum bir qisqa timsol bo`lib, «kalit» yoki «kod» bilan belgilanishi mumkin.

Kiyim belgisi – kommunikatsion funktsiyani bajarib, ijtimoiy nyuanslarni chegaralaydi, ya`ni kiyim iqtisodiy darajasi belgisi kiyim ma`lum g`oyaviy guruhga taalluqlilik (xudojo`y, zamonaviy, konservativ) kiyim etnik sifat belgisi (mintaqaviy, milliy) kiyim jinsiy farqlilik belgisi kiyim insonning did belgisi kiyim madaniyat belgisi dastlab belgililik odam tanasining qismlari va uning funktsiyalarini belgilaydi. Keyinchalik u kostyum turi materialning shakli, rangi, detallarning joylashuvi va tasnifi kiyimni manerasi va bezaklari sifatida ishlatiladi.

Qadimgi Misr kostyumlarini qarab chiqadigan bo`lsak, bo`yinga tikiladigan kursimon joylashishiga ega bo`lgan marjonlar joylashuvi. Misrliklarning asosiy xudosi Ra – quyosh xudosini anglatgan. YOqa o`yiminig – uchburchak shaklda qirqilishi, hosildor Nil daryosining qirqimini izohlagan. Kostyum egalari Vuzlar esa xudoga yaqinlashtirib ilohiylashtirilgan holda grim surilgan (Kleopatra, Gerakl). Tarixning keyingi davrida keng hashamdor, «Barokko» usulidagi kiyimlar zodagon oilalarga mansub bo`lib ozodlik timsoli edi (XVI asr).

TSilindr va frak (IX asr) ishbilarmon shaxslar kostyumi, qizil durra va teridan tayyorlangan pidjak, Ulug` Oktyabr Revolyutsiyasi ayollar teng huquqliligining timsoli bo`lib qabul qilindi.

**KIYIM SHAKLINING TUZILISHI HAQIDA TUSHUNCHA. KIYIM
STRUKTURASI VA UNING TUZILISH JARAYONI. KOSTYUM SHAKLINI
HOSIL QILISHDA CHIZIQLAR VA DETALLARNI KONSTRUKTIV-
BEZAK ROLI**

Kiyim loyihalash jarayonida uning shakli chuqur ahamiyatga ega. Kiyim shakli o`zida o`sha zamon uslubiga monand bo`ladi. Kiyimdagi shakl vaqtdagi davriylikni o`zida saqlab qoladi.

Kiyimni shakli qanday tuzilganligi va rivojlanganligini bilish uchun uning ahamiyati va mohiyatini anglash kerak. Dizayner sohasidagi nazariy tushunchalar «Kiyim shakli» tushunchasining mazmunini to`liq izohlay olmaydi. Kiyim shaklining ko`pincha statik holatda ko`rib chiqiladi. Vaholanki, u dinamik tizim bo`lib hisoblanadi. Ba`zida kiyimning odam bilan bog`liqligi ya`ni uning harakati va proportsiyasi bilan bog`liq holatda qarab chiqish kerakdir. Agarda bizning harbiy xizmatchilarning XIX asr davomida kiyimlar rangining o`zgarishi o`rganilgan holda faqatgina ularning rangiga e`tibor berib kifoyalanishimizga to`g`ri keladi.

Kiyim shakli o`rganilaetganda 4 darajaga ajratishimizga to`g`ri keladi. Gazlama fakturasi rangi bezagi chiziqlari ko`rinuvchi choklari – moddiy dekorativ daraja. Kiyim erkinlik darajasi (tanaga yopishuvchanligi – erkin etish haq darajasi).

Kiyim shakli geometrik ichki tavsif sifatida (proportsiya geometriya simmetriya) – strukturaviy daraja odam tanasi shaklining plastikligi – tana plastiklik darajasi.

Kostyum shaklining yuqoridagi darajalari bo`yicha o`rganish chuqur o`zaro tahlilini talab etadi. SHunday ekan, kiyim shakli dinamik holatda teatrlashtirilgan guruh eki bir kishilik manekenchilar yordamida namoyishi bilan olib boriladi.

Kiyim namoyishida asosan kiyim modelining fiksatsiyasidan ko`ra uning plastik tilsimi shakli xotirada qoladi. Kiyimlarning namoyishi asosiy maqsadi shakllar g`oyasi, masalan, bir geometrik shakllari va ularning proportsional mosliklari asosida tuzilgan kiyimlar assortimentini publika e`tiboriga berishdan iborat. Kiyim shakli bundan harakatda ko`rinadi. Harakat kiyim shakli haqida ma`lumot beruvchi omil bo`lib hisoblanadi. Ma`lum bir kiyim shaklining o`qilishi va qabul qilinishi ma`lum bir vaqt oralig`iga yuzaga keladi, ya`ni fizikaviy jismning fazoda harakatlanishi bilan birgalikda biologik o`zgarish, kuchlanish, tovushlar, mexanik faktor, balki vaqtinchalik faktor sifatida qabul qilish kerak. Kiyim shakli ma`lum bir vaqt mobaynida fazodagi alomatlar yig`indisidan hosil bo`ladi.

SHunday qilib, kiyim shakli deganda fazoviy vaqt tizimini dinamik modeli tushuniladi. Undan model elementlari figurasi va muhiti o`rtasidagi ko`p darajali strukturaviy bog`liqligiga egadir. Kiyim shaklini geometrik ko`rinish struktura, konstruktsiya aniqlaydi.

SHakl mavjudligining asosiy qoidasi uning etukligi va tashkil etilishidir.

SHakl 3 ta aspektda bo`lishi mumkin.

YAkka oddiy model tizimi.

- Inson ma`lum obrazini tavsiflovchi sifatida.
- Mahsulotlar guruhi umumiy g`oyasini beruvchi tur sifatida.
- Vaqtning umumiy g`oyasini anglatuvchi maksimum tizimni tavsiflovchi bezakli shakl sifatida.

Kostyumdagi geometrik ko`rinish konstruktsiya, material va proportsiya tsiklini tavsiflaydi. Barcha variantlar uchun asos bo`lib xizmat ko`rsatuvchi bazaviy yoki asosiy shakl deb hisoblaydi. Bazaviy shakl mahsulotlar seriyasiga asos bo`lib ma`lum uslub uchun g`oya shakl hisoblanadi. Uslubiy bazaviy shakl bo`lib vaqtning ma`lum ahamiyatli alomatlarini mujassamlashtirilgan shakl hisoblanadi. Klassik shakl progressiv urf-odatlar o`zida mujassamlashtirib va uni kelajakdagi o`zgarilishini o`zida aks ettiradi. Klassik shaklda misol bo`lib inglizcha kostyum, shotlandlar yubkasi, frak, redingod, tufli – qayiq yoki lodochka, ko`ylak – rubashka, shim, pidjak, yumshoq shlyapasi, shapka-quloqchin. Klassik shaklda azaldan saqlanib kelgan va hozirda funktsiya talablariga javob beruvchi elementlar mujassamlashgan bo`ladi.

SHakl – nafaqat tashkil etilgan hajm, balki uning fazo bilan chegarasidir. Har bir shakl og`irlik markazi o`q va simmetriyaga ega bo`lishi lozim. Markaziy shaklning kattaligi va uning harakatini aniqlaydi va psixologik kuch sifatida keltirilishi mumkin.

Markazni nafaqat uning belgilanganlariga ko`ra, balki vizual qabul qilinadigan tasvirlardan tarqaluvchi kuchlar o`zaro aloqasi orqali ham aniqlash mumkin.

Kiyim shakli tashkil etish tamoyillari uning strukturasini to`liq o`rgangan holatdagina aniqlash mumkin. Buning uchun shakl detallari va ularning o`zaro aloqa tizimi nisbatlari bo`laklarga bo`lingan holda o`rganiladi. SHakl o`rganilishining turli aspektlari morfologik chiziqlari, funktsiyalari, tayyorlash texnologiyasi bo`lib hisoblanadi.

Struktura – biror-bir ob`ektning muallaq «skeleti» bo`lib qolmay, balki qoidalar majmuasi bo`lib bir ob`ektning 1, 2, 3-chi va shokazo uning elementlari va hosilalari almashtirilishi bilan yuzaga keltiriladi. Strukturaning tarqalgan tushuncha

bo`lib, u geologiya, matematikada uchraydi. Struktura nafaqat tahlil uchun, balki predmetning birlamchi qabuli uchun zarurdir. Struktura – 2, 3 bo`lakdan iborat tizim ko`rinishda qabul qilinib, bo`laklanuvchi tushunchasi makrostruktura bo`lib hisoblanadi.

Makrostruktura – uning mashtabi butun asar mashtabiga teng yoki tizimning to`liqligidir. Makrostruktura deganda, ma`lum bir konstruktsiya estetik timsol asosida tuzilgan mahsulotlar guruhining oddiy strukturasi bo`yicha ketma-ketligi tushuniladi. Masalan: o`zbek xalqi san`ati motivlari asosida yaratilgan o`yinchilar, raqqosalar kiyimining murakkab ansabli.

Mikrostruktura yoki oddiy struktura tushunchasi asosida makrostruktura tarkibini tashkil etuvchi alohida modellar tushuniladi.

Strukturani anglashdan maqsad kostyum alomatlarining sifati o`zgarishlarini tushunish, bu o`zgarish siljishni anglatish va bu haqda eHMga ma`lumot shakli o`zgarishining ahamiyatli va ahamiyatsiz ekanligini ajratishdan iborat.

XIX-XX asr kostyum shakllari tahlil qilinganda, ular shakli geometrik shaklining ma`lum bir turiga mansubligi aniqligi, ya`ni shakl detallari ma`lum bir shakl sifatida ekanligi ma`lum bo`ladi.

Kiyim shakllarining tahlili ular siluetlari tahlili bilan yondosh bo`lib, ular trapetsiya, to`rtburchak, aylanalar turli ko`rinishi shaklida berilgan. Vaqt o`tishi bilan oddiy, ovalsimon, to`rtburchaksimon konfiguratsiyalar murakkablashib kelmoqda.

Kiyim shakli zamona uslubiga mos holatda o`zgarib keladi. XX asr kostyumlaridagi ham sifatiy, ham miqdoriy alomatlar tahlil qilinganda, kiyimning uzunligi va eni bel sathi, shakl proektsiyasi yuzasiga tayanildi.

Ustki kiyimlar – palto, plashlar ko`ylaklarga nisbatan kam o`zgaruvchan shakldagi to`rtburchaklar ham vaqt davomiyligida o`z ko`rinishini o`zgartiradi.

Masalan: 1910-1944 va 1966 yillardagi ayollar kiyimidagi shakl farqlari. Har bir moda tsikli 103-106 yilni tashkil etadi.

Kiyimdagi asosiy shakllar – 3 xil asosiy geometrik struktura – oval, trapetsiya, to`rtburchak.

Ular doim transformatsiyalanib, burchaklar kattaligi va chiziqlar qiyshiqligi o`zgarishi bilan hosil bo`ladi.

Moda va kostyum murakkab o`zaro tashkil etuvchi tizim bo`lganligi sababli kiyim shakli etukligi va to`liqligini ta`minlash uchun moda rivojlanishi jarayoni boshqarish talab etildi.

A D A B I Y O T L A R :

1. Parmon F.M. «Kompozisiya kostyuma» M., 1985.
2. Kozlova T.V. «Osnovi xudojestvennogo proektirovaniya» M., 1987.
3. Kozlova T.V. «Estetika proektirovaniya odejdo`». M, 1989.
4. Hasanboeva. «Kostyum va moda tarixi». T., 2002.
5. Parmon F.M. «Xudojestvennoe proektirovanie odejdi promishlennogo proizvodstva». M., 1981.